
Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida ijtimoiy-ma'naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlarini o'rganish natijalari bo'yicha axborot

Berilgan topshiriqqa asosan joriy yilning **6 - 13 sentyabr** kunlari **8 ta ishchi guruhlar** tomonidan Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida ijtimoiy-ma'naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlari o'rganildi.

Ishchi guruhlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi U.I.Safarov, vazirlik va idoralar, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, nodavlat notijorat tashkilot rahbarlari boshchilik qilgan holda Uchko'prik tumanining **49 ta** mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib bordilar.

Uchko'prik tumanida **43 ming 337 ta** xonadonlarda **225 ming 123 nafar** fuqaro istiqomat qilib, ishchi guruh a'zolari tomonidan **40 ming 169 ta (92,7%)** xonadonlarga kirib chiqildi. O'rganish jarayonida turli yo'nalishlarda jami **6 469 ta** muammolar aniqlandi.

Mazkur muammolarni **5 569 tasi** yoki umumiy murojaatlarning **86,1 foizi bartaraf etildi.**

Jumladan,

1. Aholini gaz, elektr energiya va ko'mir bilan ta'minlash bo'yicha:

Tabiiy va suyultirilgan gaz bo'yicha 716 ta muammoli masalalar ko'tarilgan bo'lib, **694 tasi** (96,9%) hal etilgan. Ushbu sohada murojaatlarning asosiy qismi maishiy gaz ballon hamda suyultirilgan gaz bilan ta'minlash bo'yicha bo'lmoqda.

6-13 sentyabr kunlari tuman aholisiga **1447 dona (532,4 mln.so'mlik)** maishiy gaz ballonlari tarqatildi, shuningdek, **4424 dona** gaz ballonlari **221,22 tonna** suyultirilgan gaz bilan to'ldirib berildi.

Uchko'prik tumani aholisiga 2018-2019 yil kuz-qish davri uchun

8 ming 892 tonna ko'mir va ko'mir briket mahsulotlari etkazib berish joriy yil oktyabr oyidan boshlab berilishi rejalashtirilgan bo'lib, o'rganish davrida (6-13 sentyabr kunlari) **970 tonna** (11%) ko'mir etkazib berildi.

Tumandagi ijtimoiy soha ob'ektlari uchun **3004 tonna ko'mir berish** rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda jami **2943 tonna** (98%), jumladan, Maktabgacha ta'lim bo'limi **620 tonna** (100%), umumiy o'rta ta'lim maktablari **1453 tonna** (99%), Sog'liqni saqlash muassasalariga **300,7 tonna** (103 %) ko'mir bilan ta'minlandi.

Elektr ta'minotini yaxshilash bo'yicha jami **144 ta** muammoli masalalar ko'tarilgan bo'lib, **99 tasi** (68,8%) hal etilgan.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tumanga **230 ta** tayanch betonlar, **600 kg** har xil turdagi ochiq sim, 150 metr kabel mahsulotlari **50 dona** metall konstruksiyalari, **57 dona** kommutatsion apparatlar, **200 metr** kommutatsiya simlari, **70** dona izolyatorlar, **6 dona** pasinka hamda **3 ta** har xil quvvatdagi transformator punktlari olib kelinib jami **450 mln. so'mlik** qurilish-montaj ishlar olib borilmoqda.

6-13 sentyabr kunlari **"Tinchlik", "Mashat", "Katta Kenagas", "Qurbonqashqar" va "G'ozig'ijdon", "Mirzaxo'ja" "Farovon" "Qorayantoq" "Kichik Kenagas" "Begmurod" "Chang" "Sobirjon" "Yakkatut" "YAngiqishloq" "Oltin Vodiy"** mahallalaridagi **25 ta** ko'chalarda **160 dona** temir beton tayanch o'rnatish ishlari bajarildi. **"G'ozig'ijdon", "Mirzaxo'ja"** mahallalarida **2 ta** transformator punkti o'rnatildi. Hozirda tarmoq tortish va ta'mirlash ishlari davom ettirilmoqda.

Ishchi guruhning o'rganishi davomida kelib tushgan murojaat va takliflar asosan elektr tarmoqlarini ta'mirlash, nostandart yog'och ustunlarni yangilash, qo'shimcha transformator punktlari o'rnatish ishlarini tashkil etdi.

~~Amalga oshirilgan ishlar natijasida tumandagi jami **22 ta** mahallalardagi **9756 ta** aholi xonadonlarining, **7 ta** ijtimoiy soha muassasalari va **105 ta** tadbirkorlik sub'ektlarining elektr ta'minoti yanada yaxshilandi.~~

2. Toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha:

Tumanda **24 km** (14%) ichimlik suvi tarmoqlari ta'mirga muhtoj bo'lib, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi **79,5 foizni** tashkil etadi.

O'tkazilgan o'rganishlarda **169 ta** murojaat tushgan. Ushbu murojaatlarni hal etish maqsadida tumanda jami **24 km** yangi tarmok tortish rejalashtirilgan bo'lib, shundan bugungi kun holatiga **15 ta** ichimlik suv minorasi ta'mirlandi, **15,3 km** transheya qazildi, **14,8 km** polietelin tarmog'i etkazib berildi hamda **7,3 km** tarmoq tortildi, **15 ta** suv nasosi o'rnatildi,

29 ta ichimlik tarmog'idagi nosozliklar bartaraf etildi, **7 km** oqava suv tarmoqlari tozalandi.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlar natijasida qo'shimcha **1240 ta** xonadon yoki **5015 nafar** aholi ichimlik suvi bilan ta'minlanib, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi **89,1 foizga ko'tariladi**.

3. Ichki yo'llarni holatini yaxshilash bo'yicha:

Uchko'prik tumanida **1344,8 km** ichki yo'llar mavjud bo'lib, ularni **346,2 km (25,7 %)** qismi ta'mirtalab holatda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha jami **34 ta** dan ortiq yo'l qurilish texnikalari jalb etilib **22 ta** MFY hududidagi **41 ta** ko'chalarda **14,66 km** ichki yo'llar shag'allashtirildi. Ichki yo'llarni shag'allash ishlari davom etmoqda.

Umumfoydalanuvdagi **4K-881"Uchko'prik-Poloxon-Jalaer-Arab"** hamda **4K-260 "Navbaxor-Buvayda-Qo'qon"** avtomobil yo'llari kesishmasiga transport vositalarini tartibga soluvchi svetafor qurilmasi o'rnatildi, **4K-877 "Yangiqo'rg'on-Ultarma-Qaqir"** avtomobil yo'lining **12-13 km** qismi oralig'ida **3 ta** temir-beton quvur o'rnatildi va ushbu yo'llarda paydo bo'lgan **200 m²** chuqur-chanoqlar ta'mirlandi. **4K-881"Uchko'prik-Poloxon-Jalaer-Arab"** avtomobil yo'lining **4 joyida** va **4K-881a "Gul qishlog'iga"** avtomobil yo'lining **2 joyida** piyodalar o'tish joylari belgilandi.

Murojaatda ko'rsatilgan ichki yo'llarni (**20,3 km**) asfalt bilan ta'mirlash uchun **jami 3216,7 mln so'm** mablag' (8253 tonna asfaltobeton mahsuloti, 495 tonna bitum) talab etilmoqda.

4. Melioratsiya va tomorqalarni sug'orish tizimini yaxshilash bo'yicha:

Tumanda suv xo'jaligi yo'nalishida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlarga jami **12 dona mexanizmlar** ajratildi. Shundan **2 dona** avtotreyler, **2 dona** MAN avtosamosval xamda **8 dona** ekskavatorlar jalb etilib, **15,13 km** uzunlikda kollektor-drenaj va sug'orish tarmoqlarida ta'mirlash-tiklash tadbirlari bajarildi.

Jumladan, **meliioratsiya tadbirlar** bo'yicha "G'ozig'ijdon, Mehnatobod, Toshkentliguzar, Xasanqora, Uchko'prik, Katta Kenagas MFYlar xududidagi ichki zovur tarmoqlarida **2,43 km** tozalash ishlar bajarilib aholi tomorqalarining **285 ga** maydondagi er osti sizot suvlari sathi pasaytirildi. Xozirgi kunda xam zovur tarmoklarida jami **8 dona** mexanizmlar yordamida tozalash ishlari davom etmoqda.

Irrigatsiya tadbirlari bo'yicha MFYlari hududidagi sizot suvlari sathini pasaytirish uchun zovur tarmoqlari va aholi tomorqa maydonlariga suv keltiruvchi ariqlarni tozalash uchun **1 dona** ekskavator ishga qo'yilib,

jami **1,7 km** ichki ariq tozalash ishlari bajarildi. **G'ozig'ijdon, O'zbek, Qurbonqashqar, Tepaqo'rg'on, Mirzaxo'ja, Katta Kenagas, Tojik, Sobirjon, Katta Qashqar, Istiqbol, YAngier, Olmurod, Sulton** MFY lardagi **128 ta** aholi tomorqa erlarini sug'orish uchun ichki ariqlardan suv olib kelinib, tomorqa sug'orish suv etkazib berildi.

Shuningdek, "**Obod qishloq**" dasturi doirasidagi tadbirlarga **4 dona** mexanizmlar ajratilib, **Toshkentliguzar, Kattakenagas, Uchko'prik, CHorbog'** MFYlar hududidagi **11 km** uzunlikda zovur tarmoqlarini ta'mirlash ishlari rejalashtirilib, amalda **11 km (100 foiz)** bajarildi.

5. Aholi sog'lig'ini saqlash yo'nalishida jami 195 ta muammo aniqlandi.

Tumanda joylashgan **12 ta** birlamchi tibbiy-sanitariya yordam muassasalarida jami **12,5** stavka umumiy amaliyot shifokori (UASH) va **12,5** stavka tor doiradagi mutaxassislar etishmasligi, tumanda birlamchi tizimni yanada sifatini oshirish uchun tor doiradagi mutaxassislarga bo'lgan extiyoj sababli birlamchi malakali tibbiy yordam ko'rsatilishiga salbiy ta'sir etmoqda.

6-13 sentyabr kunlari Tuman axolisining **17799 nafari** to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Shu jumladan, **721 nafar** nogironlar, **412 nafar** pensionerlar va **215 nafar** boshqa toifadagi fuqarolarning **o'z uylariga** borgan holda tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Jami tibbiy ko'rikdan o'tkazilganlarning **5715 nafarida (29,6%)** kasalliklar aniqlandi. Kasalligi aniqlanganlarning **5438 nafari** ambulator davolanishga, **264 nafari** tuman markaziy shifoxonasida, **19 nafari** viloyat ixtisoslashgan shifoxonalarda va **1 nafari** Respublika ixtisoslashgan shifoxonaga davolanishga yo'llanma berildi.

Shuningdek, **26 nafar** fuqaroga nogironlik aravachasi, **5 nafar** fukaroga qo'ltiq tayoq, **4 nafar** fuqaroga eshitish moslamasi berildi. Nogironlik belgilash masalasida **24 nafar** fuqaro xujjati o'rganib chiqilib, **5 nafar** fuqaroga nogironlik guruxi belgilandi.

Viloyat mutaxassisleri ishtirokida tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli shoshilinch tez tibbiy yordam bo'limi va jarrohlik bo'limida mahorat darsligi o'tkazilib, unda **1 nafar** bemorning yangilik operatsiyasi o'tkzildi hamda **6 nafar** kam ta'minlangan bemorlar operatsiya qilindi.

6. Maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha:

Tumandagi jami **16 ming 538 nafar** 3-7 yoshli bolalarning **5 ming 322 nafari (32,1%) 35 ta** maktabgacha ta'lim muassasasiga qamrab olingan. Shuningdek, **15 ta** bog'chada **23 ta** qisqa muddatli guruhlar tashkil etilgan bo'lib, ularga **463 nafar** bolalar jalb qilingan. Tumandagi **16 ta** mahallada bog'cha umuman mavjud emas.

O'rganish jarayonida fuqarolar tomonidan maktabgacha ta'lim bilan bog'liq **152 ta** murojaatlar kelib tushdi.

Ishchi guruhi tomonidan aholi muammolarini o'rganish jarayonida tumandagi **4 ta** (8,15, 27 va 37-sonli) bog'chalarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash maqsadida **8 dona 52 mln. so'mlik** isitish qozonlari o'rnatildi.

1 ta (18-sonli) bog'chaning tom qismini ta'mirlash uchun **4,3 mln. so'm** mablag' ajratilib, ta'mirlash ishlari bajarildi.

35-bog'cha filialidagi 1 ta to'liq guruh xonasi uchun **1,2 mln. so'mlik 5 komplekt** stol-stul jamlanmasi homiylik yo'li bilan berildi.

2 ta (8 va 33-sonli) MTMLarning atrofi (jami **320 metr**) homiylik tariqasida devor bilan o'raldi.

Toshkentliguzar MFYdagi 19-bog'chada 1 ta qisqa muddatli gurux tashkil etildi. Tumandagi **25 nafar** bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda joylandi.

7. Xalq ta'limi tizimini o'rganish davomida tumandagi **54 ta** umumta'lim maktablaridan **8 tasi joriy** ta'mirga, **11 tasida** qo'shimcha bino qurish va rekonstruksiya qilish zarurligi, **17 ta** maktab binolari kapital ta'mirga muhtojligi, **8 ta** maktabda sport zaliga ehtiyoj mavjudligi, **7 ta** maktabda laboratoriya jihozlari mavjud emasligi, 12 ta maktab filiallaridan **3 tasi** rekonstruksiyaga va **3 tasi** kapital ta'mirga muhtojligi aniqlandi.

O'rganish davrida mazkur maktablarda, xususan, 10-sonli umumta'lim maktabida **12 p/m** isitish tizimi ta'mirlanib, **6 ta** eskirgan qozoni yangilandi. Amalga oshirilgan ishlar uchun mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan **60,0 mln. so'm** sarflandi.

Shuningdek, 6-sonli maktabda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan **10,0 mln.** so'm sarflanib, 5 ta eshik zamonaviy yangi eshiklar bilan almashtirildi.

27-sonli maktabda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan **25,0 mln. so'm** sarflanib, 2 ta xonaning jami 114 kv/m pol qismi yangisi bilan almashtirildi.

32-sonli maktabda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan **30,0 mln. so'm** sarflanib, uchinchi bino tom qismidagi 290 kv/mdagi shiferlarini yangisi bilan almashtirildi.

51-sonli maktabda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan **20,0 mln. so'm** sarflanib, eskirgan ^{3/6} 3 ta issiqlik qozoni yangisi bilan almashtirildi.

5-sonli maktab filialida homiyalar jalb qilinib, 4 ta sinf xonasi shift qismi yangilandi, 30-sonli maktabda 1 ta issiqlik qozoni yangisi bilan almashtirildi hamda 30 p/m hajmdagi isitish tizimini ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari, tumandagi ta'lim muassasalarining issiqlik tizimini ta'mirlash, binolarni joriy ta'mirlash uchun 2019 yilgi mahlliy byudjetdan **2 mlrd. 610 mln. so'm** ajratilishi rejalashtirildi.

Tumandagi umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan **3763 nafar** o'qituvchilarning **2406 nafari (87,1%)** malakasini oshirgan.

Maktablarda tahsil olayotgan **39 ming 3 nafar** o'quvchilarning **27 ming 612 nafari (70,8%)** to'garaklarga jalb etilgan.

8. Aholining bandligini ta'minlash bo'yicha:

Tuman bandlik bo'limining hisobotiga ko'ra, tumanda mehnatga layoqatli aholining **8 ming 929 nafari** (10,7 %) ishsizdir.

Tumanda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi yo'nalishida yangi loyihalarni aniqlash, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmagan.

Natijada **12 ming 114 nafar** fuqarolar uzoq muddatga chet mamlakatlarga chiqib ketgan.

Xorijdan qaytgan fuqarolarning bandligini ta'minlash masalasida bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan.

30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar soni **5 ming 786 nafarni** tashkil etib, shundan ish bilan ta'minlanmagan uyushmagan yoshlar soni **1 ming 282 nafarni** tashkil etadi.

Chetdan qaytgan **126 nafar** yoshlardan **21 tasi** ish bilan ta'minlangan.

O'rganish davomida ishga joylashtirish bo'yicha kelib tushgan murojaatlar bo'yicha **18 nafari** ishga joylashtirildi, shulardan **9 nafari** haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi.

Bandlik bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida:

Ishga joylashish uchun yo'llanma berilib, ishga joylashganlar, soni **759 ta;**

Jamoat ishiga yuborilganlar soni **609 ta;**

Kasbga qayta tayyorlash uchun ro'yxatga olinganlar soni **33 ta;**

Ustoz-Shogird asosida o'qitishga talab bo'yicha ro'yxatga olinib, birlashtirilgan yoshlar soni **385 ta;**

Jami **5091 ta** fuqaroning bandligi ta'minlangan.

Shu bilan birga, ishsiz fuqarolar bandligini ta'minlash maqsadida joriy yilning **8-11 sentyabr** kunlari "Bo'sh ish o'rinlari Mehnat yarmarkasi" tashkil etildi.

Yarmarkaga jami **3630** nafar ish izlovchi fuqarolar qatnashib shundan, **741** nafari ish bilan ta'minlandi, jumladan:

141 nafar fuqarolarga iqtisodiyotning turli yo'nalishlari bo'yicha yo'llanma berilib ishga joylashishga ko'maklashildi;

600 nafar fuqarolarga Jamoat ishlariga jalb qilinishi bo'yicha yo'llanmalar berildi;

9. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha:

Tumanda o'rganish davomida aholining kam ta'minlangan, ehtiyojmand qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalarida kelib tushgan muammolarni bartaraf etish maqsadida **165 ta** oilalarga **31 mln. so'mlik** bir martalik moddiy yordam tarqatildi.

Tumanda o'rganish davomida aholining kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa masalalarida jami **64 ta** muammolar kelib tushgan bo'lib, ushbu muammolarni to'liq bartaraf etish jarayonida me'zon asosida tayinlangan **18 nafar** fuqarolarga jami **31,9 mln.so'mlik** ijtimoiy nafaqalar tayinlandi.

10. Tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari va bank krediti ajratilishi bo'yicha 527 ta masala ko'tarilgan bo'lib **501 tasi** (95,1 %) hal etildi.

Shuningdek, xonadonlarda uyma-uy o'rganishlar davomida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish istagida "**Har bir oila-tadbirkor**" Dasturi davomida **222 nafar** fuqarolarga **4 307,8 mln. so'm** miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi.

Jumladan:

- **38 ta** fuqarolarga **980,6 mln. so'm** issiqxona tashkil etish maqsadida;
- **2 ta** fuqarolarga **13,5 mln. so'm** parrandachilikni rivojlantirish maqsadida;
- **78 ta** fuqarolarga **910,2 mln. so'm** qo'y sotib olish maqsadida;
- **100 ta** fuqarolarga **1 977,7 mln. so'm** tikuvchilikni rivojlantirish maqsadida;
- **4 ta** tadbirkorlik sub'ektiga **425,8 mln. so'm** ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida kredit mablag'lari ajratildi.

PF-5466 "Yoshlar kelajagimiz" dasturi bo'yicha **2 ta** yosh tadbirkorga **30,5 mln. so'm** miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Shu bilan birgalikda **57 nafar** fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga **801 mln. so'm** imtiyozli kreditlar ajratilishi bo'yicha hujjatlar tayyorlandi.

Jumladan:

- **10 ta** fuqaroga **65 mln. so'm** qo'y sotib olish maqsadida;
- **15 ta** fuqaroga **182.8 mln. so'm** issiqxona tashkil etish maqsadida;
- **30 ta** fuqaroga **505.2 mln. so'm** tikuvchilikni rivojlantirish maqsadida;
- **2 ta** fuqaroga **48 mln. so'm** milliy pishiriqlar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida.

-

11. Ko'p qavatli uylarda amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha:

Olib borilgan ishlar natijasida ko'p qavatli uylar oldiga qurilgan **14 ta** noqonuniy qurilmalar bartaraf etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 apreldagi "2017-2021 yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2922-sonli hamda 2017 yil 8 avgustdagi "Xududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda joylashgan ko'p qavatli uy-joylar va ularning hududlari xatlovdan o'tkazildi.

Xatlovdan o'tkazish natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida "Uchko'prik" MFY "Shodlik" ko'chasidagi **19 ta** ko'p qavatli uyning tom qismlarini shifer qoplamasi bilan yopib mukammal ta'mirlash, **22 ta** uylarning fasad qismlari hamda kirish yo'lak(pod'ezd)larini ta'mirlash, "Sog'lom avlod" ko'chasidagi **4 ta** uyning tom qismlarini shifer qoplamasi bilan yopib mukammal ta'mirlash, **4 ta** uylarning fasad qismlari hamda kirish yo'lak(pod'ezd)larini ta'mirlash, ko'p qavatli uylar hududiga

7 ta bolalar maydonchasi, **6 ta** xojatxona va **8 ta** tandir-o'choq qurilishi rejalashtirilib, loyiha-smeta xujjatlari tayyorlandi.

Ushbu ishlar uchun **2,3 mlrd.so'm** miqdorida mablag' sarflanishi rejalashtirildi. Viloyat hokimining 2018 yil 7 sentyabrdagi 437-F-sonli farmoyishiga asosan mablag' ajratilib, pudratchi tashkilotlar bilan

shartnomalar tuzildi.

Bugungi kunda "Uchko'prik" MFY "SHodlik" ko'chasidagi ko'p qavatli uylar joylashgan massivning bosh rejasi tayyorlandi. SHuningdek, **23 ta** ko'p qavatli uylarning tom qismini mukammal ta'mirlab shifer bilan qoplash va **2 ta** uyning tom qismini joriy ta'mirlash va **1 ta** uyning fasad qismini mukammal ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Ushbu ishlarga **132 nafar**dan ortiq ishchi-xodimlar jalb etildi.

Shu bilan birga, ko'p qavatli uylar hududlarini obodonlashtirish bo'yicha tuman "Toza hudud" DUK va Obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli **1 dona** yuk tashish, **4 dona** maxsus chiqindi tashish va **2 dona** maxsus suyuq chiqindi tashish avtotransport vositalari hamda **30 nafar** ishchi xodimlar jalb qilinib, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Buning natijasida **3 ming** nafardan ortiq fuqarolarning yashash sharoitlari yaxshilanadi.

Qolgan **900 ta** masalalar tegishli viloyat boshqarma va shahar tashkilotlariga o'rnatilgan tartibda hal qilish uchun etkazilib, shuningdek, har bir mahalla uchun alohida yo'l xaritalari ishlab chiqilib, Respublika ishchi guruhi tomonidan Uchko'prik tumanidagi mahallalar va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etishga ko'maklashish ishlari davom etmoqda.

2018-09-17 19:03:56